



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AXLOQIY TARBIYA:  
XALQ AN'ANALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR SINTEZI**

**Xasanova Marg'uba Safar qizi**

*Xalqaro Nordik Universiteti Psixologiya va Maktabgachaga ta'lim kafedrasida katta  
o'qituvchisi*

*ORCID ID: 0009-0007-3407-1439*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish masalalari xalq an'analari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi va ajdodlar merosi tarbiya jarayonining asosi sifatida ko'rib chiqilib, ularning bolalarda mehr-oqibat, halollik, odoblilik va vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shu bilan birga, axloqiy tarbiyada innovatsion ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar va zamonaviy tarbiyaviy dasturlarning qo'llanilish imkoniyatlari ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *axloqiy tarbiya, maktabgacha ta'lim, xalq an'analari, milliy qadriyatlar, zamonaviy yondashuvlar, pedagogik innovatsiyalar.*

Bola shaxsining shakllanishida axloqiy tarbiya eng muhim jarayonlardan biridir. Ayniqsa, maktabgacha yosh inson ma'naviyatining, xulq-atvori va dunyoqarashining poydevori qo'yiladigan davr hisoblanadi. Shu bois mazkur davrda milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayonini yo'lga qo'yish, yosh avlodning axloqiy barkamolligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini, marosimlarini, og'zaki ijodi namunalari yuksak insoniy fazilatlar mujassam bo'lib, ular yoshlar tarbiyasida bebaho manba hisoblanadi. Shu bilan birga, globallashtirish davrida ta'lim-tarbiyada zamonaviy innovatsion yondashuvlarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish zarurati tug'ilmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishda milliy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning sintezi eng dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Mazkur maqolada xalq an'analari asosida shakllangan axloqiy tarbiya usullari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish imkoniyatlari hamda ularning maktabgacha ta'lim jarayonida qo'llanilish istiqbollari atroflicha ko'rib chiqiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasi ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu davrda bolaning shaxsiy sifatleri, axloqiy qarashlari, insoniy fazilatlari shakllanadi. Bola oiladan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham muntazam tarbiyaviy ta'sir ostida bo'ladi. Shu bois ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish masalasi pedagogik nuqtai nazardan doimo dolzarb hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda xalq an'analari va zamonaviy yondashuvlar uyg'unligi alohida ahamiyatga





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ega. Xalq pedagogikasida asrlar davomida shakllangan tajribalar, milliy qadriyatlar, odob-axloq haqidagi pand-nasihatlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar va milliy o'yinlar bola ongida axloqiy tushunchalarni mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bugungi globallashuv davrida pedagogik jarayonlarda zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanish, interfaol texnologiyalarni qo'llash zarurati ham kundan-kunga oshib bormoqda. Ana shu ikki yondashuvni bir-biri bilan uyg'unlashtirish orqali bolalarda axloqiy tarbiyani samarali shakllantirish mumkin.

Avvalo, xalq an'analari asosida tarbiya berishning afzalliklarini ko'rib chiqamiz. O'zbek xalqining boy ma'naviy merosida axloqiy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Ertaklarda halollik, mehnatsevarlik, do'stlik, vatanparvarlik kabi sifatlar ulug'lanadi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagida halollik va sabr-toqatning natijasi ko'rsatilsa, "Alpomish" dostonida sadoqat, mardlik va vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. Bu kabi xalq og'zaki ijodi namunalarini bolalarga muntazam yetkazib borish ularning ongida axloqiy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqollar va matallar ham axloqiy tarbiyaning muhim vositalaridan biri bo'lib, "Halol mehnat – baxt kaliti", "Yaxshilik qil, dengizga tashla" kabi hikmatlar orqali bolalar xulq-atvori shakllanadi. Milliy o'yinlar ham tarbiyaviy jarayonning samarali vositasi sifatida qo'llanadi. O'yinlar orqali bolalarda jamoada ishlash, tartibga rioya qilish, o'zaro hurmat, g'alabaga intilish kabi ijtimoiy-axloqiy ko'nikmalar shakllanadi.

Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik yondashuvlarning afzalliklari ham juda katta. Axloqiy tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bolalarning qiziqishini oshiradi, ularning faol ishtirokini ta'minlaydi va o'quv-tarbiyaviy jarayonni samarali qiladi. Masalan, interfaol metodlardan "rol o'ynash o'yinlari" orqali bolalar turli hayotiy vaziyatlarda o'z xatti-harakatlarini sinab ko'rishadi, "aqliy hujum" usuli orqali esa turli axloqiy muammolarga yechim topishni o'rganishadi. Multimedia vositalaridan foydalanib, milliy ertaklar va hikoyalarni audio yoki video formatda taqdim etish bolalarda yanada katta taassurot uyg'otadi. Shu orqali ular nafaqat milliy qadriyatlarni o'zlashtiradilar, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quv jarayoniga faolroq jalb qilinadilar.

Xalq an'analari va zamonaviy yondashuvlarni sintez qilish bir necha pedagogik afzalliklarni beradi. Birinchidan, bu usul bolalarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini kuchaytiradi. Chunki xalq qadriyatlari ular ongida milliy identifikatsiyani shakllantiradi. Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar esa ularni o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Uchinchi jihat – tarbiyachi uchun bu jarayon metodik jihatdan boy bo'lib, u turli vositalar yordamida bir xil maqsadga erishishi mumkin bo'ladi. Natijada, bola shaxsi har tomonlama rivojlanadi, unda nafaqat bilim, balki mustahkam axloqiy fazilatlar ham shakllanadi.

Ammo mazkur jarayonda muayyan muammolar ham mavjud. Jumladan, ba'zi tarbiyachilar milliy qadriyatlarni o'quv-tarbiyaviy jarayonga to'laqonli singdira olmaydi. Bu esa bolalarda milliy an'analarga nisbatan yuzaki qarashlarning shakllanishiga olib kelishi





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



mumkin. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda ham metodik savodxonlik yetishmaydi. Ba'zi hollarda innovatsion metodlar faqat tashqi ko'rinishdagina qo'llanilib, tarbiyaviy mazmun ikkinchi o'rinda qolib ketadi. Shu sababli tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirish, ularga maxsus treninglar, seminarlar o'tkazish zarur.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish uchun xalq an'analari va zamonaviy yondashuvlar sintezini yo'lga qo'yishda bir nechta muhim omillarni hisobga olish lozim. Birinchidan, o'quv dasturlariga milliy qadriyatlarga oid ko'proq materiallarni kiritish zarur. Ikkinchidan, tarbiyachilar zamonaviy ta'lim texnologiyalarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari shart. Uchinchi jihat – oila va ta'lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish. Chunki axloqiy tarbiya faqat muassasa bilan cheklanib qolmasligi kerak, balki oilaviy muhitda ham davom ettirilishi lozim. To'rtinchidan, milliy o'yinlar, teatr sahnalashtirish, musiqiy va badiiy chiqishlar orqali bolalarda axloqiy qadriyatlarni singdirish samarali natija beradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, zamonaviy axborot makonida bolalar turli xil tashqi madaniy ta'sirlarga duch kelmoqdalar. Bu jarayonda milliy qadriyatlarga asoslangan axloqiy tarbiya ularni begona g'oyalardan himoya qilish, mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachi va ota-onalar bola ongiga milliy qadriyatlarni singdirishda izchil va uyg'un faoliyat olib borsalar, yosh avlodda halollik, odoblilik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar mustahkam qaror topadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish xalq an'analari va zamonaviy yondashuvlar uyg'unligi orqali amalga oshirilishi lozim. Bu jarayon bolalarda milliy o'zlikni anglash, axloqiy ongni shakllantirish, ma'naviy barkamollikka erishishda eng muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar va zamonaviy innovatsion metodlarning uyg'unligi ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi, yosh avlodni yuksak axloqiy fazilatlar sohibi sifatida voyaga yetkazishga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khasanova, M. (2024). USING MODERN INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION. *Nordic\_Press*, 3(0003).
2. Xasanova, M. U. (2024). Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini oshirish. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-2.
3. Khasanova, M. (2024). Integration of modern educational technologies into the educational process for instilling national values in preschool educational institution children. *Nordic\_Press*, 3(0003).



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



4. Khasanova, M. (2024). THE ROLE OF ETHNOMUSICOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION: CHALLENGES AND SOLUTIONS IN MUSICOLOGY. *Nordic\_Press*, 5(0005).
5. Khasanova, M. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM BOLANING IJTIMOIIY VA O'QUV FAOLIYATIDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISHDA MUHIM DAVR. *Nordic\_Press*, 3(0003).
6. Khasanova, M. (2024). KITABI SEVIN ÇOCUKLAR!. *Nordic\_Press*, 3(0003).
7. Khasanova, M. (2025). DEVELOPING MANAGEMENT COMPETENCIES IN PRESCHOOL EDUCATION WITHIN THE PUBLIC ADMINISTRATION SYSTEM. *Nordic\_Press*, 6(0006).
8. Qizi, X. M. S. (2024). O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda maktabgacha yoshdan ekomadaniyatni shakllantirish asoslari. *Science and innovation*, 3(Special Issue 28), 1084-1087.
9. Khasanova, M. (2025, июнь 11). The Formation of Ethnocultural Competence in Preschool Children Through National Values and Oral Folk Art. *Zamonaviy ta'lim tizimi taraqqiyotida integrativ yondashuv: muammolar, yechimlar va istiqbollari (ZTTTIYMYI-2025)*, Tashkent.
10. Sharipova, N. (2023). Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiya berishning nazariy asoslari. *Ta'lim va tarbiya jurnali*, 5(2), 44-49.
11. Rasulova, D. (2022). O'zbek xalq og'zaki ijodida axloqiy tarbiya g'oyalari. *Pedagogik izlanishlar*, 4(1), 77-82.
12. Karimova, G. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishning innovatsion metodlari. *Zamonaviy pedagogika*, 2(6), 15-20.

